

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLAR

Muhammadiyev Kamolxon

Kosonsoy tuman 1-son kasb-hunar maktabi

Tarix fani o'qituvchisi

**Aannotatsiya:** ushbu maqolada O'zbekiston zaminida millatlararo munosabatlar va ularning rivoji borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususidagi fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** millatlararo munosabat, diniy bag'rikenglik, madaniy xoslik, urf-odat, qadriyat, rivojlanish, hamkorlik, do'stlik.

**Аннотация:** В данной статье даны мнения о работе, проводимой на территории Узбекистана в области межнациональных отношений и их развития.

**Ключевые слова:** межэтнические отношения, религиозная терпимость, культурная идентичность, традиции, ценности, развитие, сотрудничество, дружба.

**Aannotation:** this article gives you ideas about interethnic relations on the Land of Uzbekistan and the work carried out on their development.

**Keywords:** interethnic relationship, religious tolerance, cultural identity, tradition, value, development, cooperation, friendship.

### KIRISH

O'zbekistonda mamlakat Prezidenti rahbarligida O'zbekiston Respublikasi davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini mustahkamlash, jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni yanada kuchaytirish, yurtimizda istiqomat qilayotgan xalqlarning etnik-madaniy o'ziga xosligini saqlab qolish, jinsi, irqi, millati, tili yoki diniy mansubligi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar kamsitishlarga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri jamiyatda yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan kelishmovchiliklar va nizoli vaziyatlardan erta ogoh qilish va ularning oldini olish bo'yicha faoliyatni tashkil etish uchun asos sifatida



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

millatlararo munosabatlarning holatini muntazam monitoring qilish hisoblanadi. "Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi mamlakatda bag'rikenglikka asoslangan millatlararo munosabatlar madaniyati, millatlararo munosabatlarning holati va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda O'zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millatlar vakillari teng huquq va erkinliklarining ta'minlanishi darajasi to'g'risida o'zbekistonliklarning fikrini o'rganish maqsadida va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, "O'zbekistonda millatlararo munosabatlar jamoatchilik fikri ko'zgasida" mavzusidagi kompleks sosiologik tadqiqotlarni har yili monitoring tartibida o'tkazib keladi. Tadqiqotlar natijalari davlatning milliy siyosati, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorligi, mamlakat fuqarolarining xayrixohligi, etnik va diniy bag'rikenglik fuqarolarning millatlararo va fuqarolik totuvligining asosiy omillari ekanligidan dalolat bermoqda.

Hugungi kunda respublikamizda qo'lg'a kiritilgan millatlararo totuvlikni ta'minlashda imkoniyat yaratgan choratadbirlar milliy o'zlikni qayta tiklash jarayonlari barqarorlikni ta'minlashda asosiy zamin bo'lgan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy mexanizmlar haqida tahlillar fikr yuritish imkonini beradi. Aytish mumkinki, mamlakatimizda yashayotgan har bir fuqaro o'z milliy ravnaqi uchun intilishlari haq-huquqlari, ehtiyojlarini qondirish uchun millatlararo munosabatlarning huquqiy asosi yaratildi. Bu fuqarolarning tengligini va erkinligini ta'minlaydi, shuningdek, fuqarolarga teng saylov huquqini berilishi barcha fuqarolarni irqi, millati, dini va boshqa belgilaridan qat'iy nazar, qonun oldida teng deb e'lon qilinishi tufayli ularni davlat va jamiyat haetida faol ishtirok etishlari uchun keng yo'l ochadi. Mavjud qonunchiligimizdagi mazkur qoidalar xalqaro huquq normalariga to'la mos kelib, O'zbekiston qonunlarini demokratik ruhdaligini jahon amaliyotidagi ilg'or yutuqlarni o'ziga mujassam etganidan darak beradi.

## ASOSIY QISM

Millatlararo totuvlik g'oyasi cayyoramizda yashayotgan 1600 dan ziyod etnik guruhlarning teng huquqlilik, o'zaro hurmat va hamkorlik asosida tinch-totuv yashash g'oyasidir. Millatlararo totuvlik g'oyasi millatparvarlik g'oyasidir. U barcha millat va elatlarni tili, urf-odati, an'analari, bayramlari rivojlanishini talab etadi. O'zaro hamkorlik va bardamlik, fashizm, milliy va etnik ko'rinishdagi



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

urushlarga qarshi turadigan yagona ma'rifiy g'oyadir. Zero, O'zbekiston buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan, qadim-qadimdan bu erga turli mamlakatlardan kelgan turli millat vakillari o'troqlashib qolgan. Ana shunday taqdir taqozosi bilan O'zbekiston hududida ukrain xalqi vakillari 2 ming yillardan buyon yashaydi. Lekin shu davr ichida biror marta ikki xalq o'rtasida ixtilof chiqmagan. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining ko'rsatilganidek, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qiladi. O'zbekistonning milliy-madaniy rang-barangligi milliy o'zlikni anglashning o'sishi har ma'naviy jihatdan qayta uyg'onish bilan chambarchas bog'liq bo'lib jarayon. Ko'pmillatli mamlakat siyosatining asosiy maqsadi millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni shakllantirish bo'lishi zarur. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq milliy siyosatning o'ziga xos yo'li ishlab chiqildiki, ayni shu siyosat milliy bag'rikenglikning barqaror rivojlanishiga zamin yaratdi. O'zbekistonda shakllangan bunday milliy bag'rikenglikdan keng dunyo jamoatchiligi o'rnak olishga intilayotgani ham bejiz emas. O'zbekistonda yashovchi turli millat vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun milliy madaniy markazlari faoliyat yuritadi. Dastlabki milliy madaniy markazlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan respublika viloyatlarida 1989 yilda tashkil etilgan. Bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnoq topishi O'zbekistonning mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 13 yanvarya qarori bilan tashkil etilgan Respublika baynalmilal markazlar markazi esa ushbu milliy madaniyat markazlar faoliyatini muvofiqlashtirib, ularga yordam ko'rsatadi. Bugungi kunda Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 150 ta milliy madaniy markaz, 38 ta do'stlik jamiyati va xorijdagi vatandoshlarning 38 ta jamiyati bilan hamkorlik qilib kelayotganligini ta'kidlash kerak. Bugungi kunda Respublika baynalmilal madaniyat markazi mamlakatda yashayotgan turli millat vakillarining ma'naviy-ma'rifiy muloqot maskaniga, ziga xos do'stlik uyiga aylangan. Bu erda muntazam ravishda xalq bayramlari, festivallar, barcha millat ardog'idagi ijodkorlar bilan uchrashuvlar, seminarlar va konferensiyalar o'tkazib kelinadi. Markaz tomonidan har yili ikki marta til bayrami o'tkaziladi. Bular - YuNESKO Bosh konferensiyasi 30-sessiyasida (1999 yil) 21 fevral - Xalqaro ona tili kuni deb e'lon qilingan va 2000 yildan 195 ta a'zo davlatlar nishonlanib kelinayotgan «Xalqaro ona tili kuni» va O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun ham bayramdir. Tarixga nazar tashlasak, o'tgan



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

asrning 30-yillarida ocharchilik tufayli yuzlab ukrainlar bir burda non topish ilinjida O‘zbekistonga kelgan va o‘zbek xalqi ularni mehr bilan qabul qilgan, non bergan. Shuning uchun «Toshkent non shahri», deb bejizga aytishmaydi. Ikkinchi jahon urushida o‘zbek xalqi yana ming-minglab oilalarni, etim bolalarni o‘z bag‘riga oldi, hech kim ko‘chada qolgani yo‘q. Bularni ko‘z yoshsiz eslamay bo‘lmaydi. O‘zbek xalqining bag‘rikengligini, bolajonligini hech bir tarozi bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Yoki birgina qirg‘iz milliy-madaniy markazi 1995 yilda tashkil topgan. Qirg‘iz millatiga mansub aholi O‘zbekistonning turli joylarida o‘zbeklar va boshqa millat vakillari bilan bahamjihat yashaydi. Masalan, Farg‘ona vodiysining o‘zida 300 mingdan ziyod qirg‘iz yashaydi. 56 ta qirg‘iz maktabi bor, shundan 31 tasida darslar faqat qirg‘iz tilida olib boriladi. Buning uchun barcha darsliklar, o‘quv qurollari O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ta’minlab berilayapti. ozir O‘zbekistonning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyat, shahar va tumanlarida markazning 23 ta madaniy-ma’rifiy tuzilmalari faoliyat ko‘rsatib turibdi. O‘tgan yillar mobaynida ular son jihatidagina emas, sifat jihatidan ham o‘sdi. Ko‘pgina masalalar ana shu markazning o‘zida hal etilmoqda. Rus milliy madaniy markazi 1994 yilda tashkil topgan bo‘lib, O‘zbekistonning barcha joylarida 200 dan ziyod tadbir o‘tkazildi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 800 mingga yaqin rus millatiga mansub aholi istiqomat qiladi. Mustaqillik yillarida xalq xo‘jaligining turli sohalarida mehnat qilib, fan-texnika, tibbiyot, sport va boshqa sohalarda yuksak natijalarga erishgan 700 nafarga yaqin rus millati vakillari davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo‘ldi. 2017 yilda O‘zbekistondagi koreys diasporasi shu zaminda yashayotganining 80 yilligini nishonladi. O‘tgan asrning 37-yillarida Uzoq sharqdan 74 mingdan ziyod koreys O‘zbekistonga badarg‘a qilingan edi. O‘zbek xalqi urush arafasi qiyinchiliklariga qaramay, ularga har tomonlama yordam ko‘rsatdi, oxirgi bir burda nonini, bir piyola sutini birga baham ko‘rdi. Aytish kerakki, koreys va o‘zbek xalqi turmush tarzida, vatanga muhabbat, oilaga sadoqat bobida yaqin o‘xshashliklar bor. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin bu erda yashayotgan koreys xalqi boshqa millat vakillari kabi o‘zining ko‘p asrlik urf-odatlarini, madaniy merosi, ona tili va qadriyatlarini avlodlardan avlodga etkazish, ularni rivojlantirish imkoniga ega bo‘ldi. Koreys xalqining O‘zbekistonda muqim o‘rnashishi va tomir otishida o‘zbek xalqining mehmondo‘stligi va bag‘rikengligi muhim rol o‘ynadi. O‘tgan 80 yil mobaynida ular o‘z milliy qadriyatlarini saqlagan holda O‘zbekistonda yashayotgan xalqlarning ajralmas qismiga aylandi. Shu davr mobaynida ulardan 283 nafari O‘zbekiston hukumatining yuqori unvon va



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

mukofotlariga sazovor bo'ldi. Xevadagi Mehribonlik uyi direktori bo'lib uzoq yillar mehnat qilgan Vera Borisovna Pak O'zbekiston qahramoni unvoni bilan taqdirlandi. Ikki nafar O'zbekiston Fanlar akademiyasi a'zosi, ikki nafar oliy o'quv yurti rektori, yuzlab turli sohalarda muvaffaqiyatli ishlayotgan koreys millatiga mansub insonlar bor. Bugun turli darajadagi xalq deputatlari Kengashlarida 8 nafar koreys millatiga mansub fuqaro faoliyat yuritayapti, O'zbekiston koreys milliy-madaniy markazi assosiasiyasi raisi Viktor Pak Oliy Majlis deputati, Agrepina Shin Maktabgacha ta'lim vaziri va hokazo. Bularning hammasi koreys xalqining bugungi islohotlarda faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi. O'zbekistonda qozoq milliy-madaniy markazi tashkil etilganiga 30 yildan oshdi. E'tibor bering, O'zbekistonda 376 ta qozoq maktabi bor. Bir qator oliy o'quv yurtlarida qozoq filologiyasi fakultetlari faoliyat ko'rsatayapti. O'zbekistonda mustaqillik yillarida 89 nafar kishiga O'zbekiston Qahramoni unvoni berilgan bo'lsa, shundan 14 tasi boshqa millat vakillari, 3 nafari qozoq millatiga mansub. Qirqa yaqin fan doktori, professor, 250 dan oshiq fan nomzodlari O'zbekistonda yashab, o'z bilimini, boy tajribasini yoshlarga o'rgatayapti. Qrim-tatar milliy-madaniy markazi esa, yoshlarga urf-odatlarini, o'rgatadi, O'zbekistonda o'tkaziladigan barcha bayramlarda, tadbirlarda o'z urf-odatlarini namoyish qilishadi. Bundan tashqari, har yili 22 sentyabrda hosil barakasi va to'ylar mavsumi sifatida nishonlanadigan «Derviza», yangi yilning boshlanishi sifatida 22 dekabrda nishonlanadigan «Yil gejesi» kabi bayramlari bor. Isroil elchisi O'zbekistonga ta'rif berganida: «Bu mamlakat yahudiylar quvg'in qilinmagan dunyodagi yagona mamlakatdir» degan ekan. Qrim-tatar milliy madaniy markazi faoli Febzi Yakubovning yozgan kitobida shunday satrlar bor: «Singapur mikrotexnologiya, Germaniya sanoat texnikasi, Niderlandiya qishloq xo'jaligida eng ilg'or o'rinda turadi desak, unda shak-shubhasiz O'zbekiston boshqa millat va elatlarning sha'ni va qadr-qimmatini qadrlashda eng oliy o'rinda turadi», degan samimiy e'tirofi, o'zbek xalqiga berilgan baholarning eng a'losidir.

## XULOSA

O'zbekistonda hukm surayotgan millatlararo bag'rikenglik asosini YuNESKO tomonidan «16 noyabr – Xalqaro bag'rikenglik kuni» deklarasiyasi, O'zbekistonning Konstitusiyasi va tegishli qonunlari, «Harakatlar strategiyasi» va Prezident Shavkat Mirziyoevning BMTning 72-Assambleyasidagi ma'ruzasida ilgari surilgan g'oyalar tashkil etmoqda. Jumladan, endilikda O'zbekistonda har yili 30 iyul – “Xalqlar do'stligi kuni” sifatida keng nishonlanadi. Ushbu band ijrosi bilan



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

belgilangan sana mamlakatimizdagi turli millatlar vakillarining bir biriga bo‘lgan mehr-oqibatini va totuvligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. «Xalqlar do‘stligi kuni» nishonlashdan asosiy maqsad hamkorlik, bag‘rikenglik, millatlararo totuvlikni mustahkamlash va odamlar, davlatlar va umuman jamiyatning turli tuzilmalari o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni yanada rivojlantirishdan iborat. Bu ham yangi qo‘shnichilikning amaliy ifodasi bo‘lib, unga ko‘ra, Xalqlar do‘stligi» ko‘krak nishoni bilan taqdirlash tartibini belgilangan. Ko‘krak nishoni bilan yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning vakillari o‘rtasida millatlararo do‘stlik va totuvlik muhitining mustahkamlanishiga munosib hissa qo‘shgan, milliy madaniy markazlar va do‘stlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish borasida fidokorona mehnat qilgan, shuningdek, xorijiy mamlakatlar xalqlari bilan do‘stlik va har taraflama hamkorlikni rivojlantirishda samarali natijalarga erishgan mahalliy va xorijiy davlat organlari xodimlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, tadbirkorlik sub'ektlari, ijtimoiy soha va ommaviy axborot vositalari vakillari hamda chet eldagi vatandoshlar taqdirlanadilar. Shu bilan birga mazkur ko‘krak nishoni bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, shuningdek, mahalliy va xorijiy tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ijodiy jamoalar hamda boshqa yuridik shaxslar ham taqdirlanishi mumkin. Quvonarli jihati shundaki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15 noyabrdagi PF-5876-son Farmoni bilan Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining konsepsiyasi millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining maqsadlari, prinsiplari va asosiy yo‘nalishlarini belgilab berildi. Ushbu Konsepsiyada birinchidan, millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish — millatlar va elatlarning vakillari o‘rtasida konstruktiv va o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish masalasiga izoh berilgan.

## Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси (Янги таҳрири). –Т., 2023 й.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т., 2021 й.
3. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”. – Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони (07.02.2017 й., ПФ-4947-сон).
4. Алимова Д. Джадидизм в Средней Азии. Пути обновления, реформы, борьба за независимость.-Т.: Узбекистан, 2000.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

5. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2013.
6. Андерсон Б. Воображаемые сообщества. Размышления об истоках и распространении национализма. – Москва: 2001.



# E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE  
SERIES